

“HUQUQIY TIZIM”

**Urolov Shansbek Shodiyor o'g'li
Kamolov Saidmurod Bobomurod o'g'li**

*Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona qo'mitasi
Bojaxona instituti 1-kurs kursantlari,
Dilshod Yuldashevich Sattarov
Ilmiy rahbar: Bojaxona instituti dotsenti*

Annotatsiya: *Mazkur maqola huquqiy tizim tushunchasi, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini o'rghanishga qaratilgan. Unda huquqiy tizimning mohiyati, uning asosiy unsurlari, shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy tizimlar o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, huquqiy tizimning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy davrdagi muammolar tahlil qilinadi.*

Anotation: *This article is aimed at studying the concept of legal system, its theoretical foundations and practical importance. It examines the essence of the legal system, its main elements, as well as the relationship between national and international legal systems. The article also analyzes the factors affecting the development of the legal system and the problems of the modern era.*

Атизация: Данная статья направлена на изучение понятия правовой системы, ее теоретических основ и практического значения. В ней рассматривается сущность правовой системы, ее основные элементы, а также взаимосвязь между национальной и международной правовой системой. Также в статье анализируются факторы, влияющие на развитие правовой системы и проблемы современной эпохи.

Kirish so'zlar: *Huquqiy tizim, ijtimoiy tartib, anglo-sakson, kontinental, sotsialist, ommaviylik, shariat, oshkoraliq, siyosiy muhit, iqtisodiy muhit, mixlangan huquqiy tizimlar*

Introductory words: *Legal system, social order, Anglo-Saxon, continental, socialist, public, Sharia, transparency, political environment, economic environment, nailed legal systems*

Вводные слова: *Правовая система, социальный порядок, англосаксонская, континентальная, социалистическая, общественная, шариат, прозрачность, политическая среда, экономическая среда, закрепленные правовые системы*

Kirish

Huquqiy tizim ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va institutlar yig'indisidir. Bu

tizimning samaradorligi nafaqat huquqning nazariy asoslariga, balki uning amalda qanday qo'llanilishiga ham bog'liqdir. Ushbu maqola huquqiy tizimni tizimli yondashuv asosida tahlil qilishni maqsad qilgan.

Huquqiy Tizimning Tushunchasi va Vazifalari

«Huquqiy tizim» tushunchasi yuridik fanga XX asrning oxirgi choragida kirib kelgan bo'lib, u bugun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tizimlar bilan bir qatorda namoyon bo'lmoqda. Huquqiy tizim huquqqa oid tushunchalar, huquqiy institutlar, huquqiy jarayonlar va boshqa barcha huquqiy vogelikni o'zida mujassamlashtirgan holda ular o'rtasidagi aloqa dorlikni ifodalaydi. Huquqiy tizim, o'z navbatida, davlat va jamiyatning huquqqa munosabatini aks ettiradi. Yuqori darajada rivojlangan huquqiy tizim nafaqat huquqni ijod qiluvchi, uni amalga oshiruvchi hamda muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qulayliklar yaratadi, balki butun jamiyatni huquq talablari doirasida hayot kechirishini ta'minlaydi.

“Huquqiy tizim — o'zaro bog'liq bo'lgan, mutanosib va bir-biriga ta'sir qiluvchi huquqiy vositalardan iborat bo'lib, ijtimoiy munosabatlami, shuningdek, u yoki bu mamlakatdagi huquqiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi tarkibiy qismlami birlashtiradi”

Prof. M.N.Marchenko: huquqiy tizim deganda, biror-bir mamlakat doirasida amal qiluvchi barcha yuridik institutlar va muassasalaming yig'indisidan iborat mamlakatning butun huquqiy tuzilmasi, jamiyatning yagona vujud sifatida huquqiy jihatdan tashkil etilganligi tushuniladi. Bu nafaqat huquqiy normalar, shu bilan birga, huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy amaliyot va hokazolami qamrab oladi.

Prof. N.I.Matuzov: “Huquqiy tizimni ichki muvofqlashgan, o'zaro bog'langan, ijtimoiy bir turdag'i yuridik vositalaming yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin. Davlat ulaming yordamida ijtimoiy munosabatlarga zarur normativ ta'sir, (mustahkamlash, tartibga solish, qo'riqlash, muhofaza qilish kabi) ko'rsatadi”.³ Lekin fanda “huquqiy tizim” tushunchasini “huquq tizimi”, “qonunchilik tizimi”, “yuridik normalar tizimi” tushunchalari bilan aynan bir xil, deb hisoblash uchrab turibdi. Huquqiy tizimni tushunishda, “huquq tizimi” va “huquqiy tizim” kategoriylarining bir-biridan farqini ajratib olish maqsadga muvofiqliqdır.

Huquqiy tizim — bu qonunlar, huquqiy qadriyatlar, institutlar, organlar va amaliyotlar tizimi bo'lib, jamiyatda tartibni saqlash va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Huquqiy tizimning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Adolatni ta'minlash vazifasi huquqiy tizim, jamiyatdagi barcha fuqaro va tashkilotlarga bir xil huquqiy asosda yondashish, shuningdek, qonunlar asosida adolatli va teng qarorlar chiqarishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tartibni saqlash vazifasi jamiyatda qonunlarga muvofiq ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni boshqarish, jinoyatchilikni oldini olish va jamiyatni barqaror saqlash uchun qo'llaniladi.

Fuqarolar huquqlarini himoya qilish vazifasi ham huquqiy tizim fuqaroning erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi, unga qonuniy himoya va adolatli sud qarorlarini taqdim etadi.

Tartibga solish va boshqarish vazifasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, fuqarolarni va tashkilotlarni qonuniy me'yorlarga muvofiq tarzda boshqarish uchun eng samaralisidir.

Barqaror iqtisodiy va siyosiy muhitni yaratish vazifasi esa huquqiy tizimning samarali ishlashi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka olib keladi. Davlatlar iqtisodiy o'sish va siyosiy yuksalishga erishish uchun huquqiy tizimni mukammallashtiradi.

Dunyoda turli xil huquqiy tizimlar mavjud, ular bir-biridan tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga asoslangan holda farq qiladi. Eng keng tarqalgan huquqiy tizimlar quyidagilardan iborat:

Anglo-sakson huquqiy tizimi (Common Law)

Anglo-sakson tizimi, asosan, ingliz qonunlariga asoslanadi. Bu tizimda sud qarorlari va presedentlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular yangi ishlar uchun yo'l-yo'r iq ko'rsatadi. Qonunlar ko'proq sud amaliyoti va qarorlari asosida rivojlanadi. Bunda, suda har bir yangi holatda avvalgi sud qarorlariga tayanadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa anglo-sakson mamlakatlarida bu tizim keng qo'llaniladi.

Kontinental huquqiy tizim (Civil Law)

Kontinental tizim Rim huquqiga asoslanadi va ko'pincha kodifikatsiya asosida quriladi. Ya'ni, barcha qonunlar va huquqiy me'yorlar aniq va bat afsil yozib chiqiladi. Bu tizimda sudlar ko'proq mavjud qonunlarni qo'llab-quvvatlaydi va amalda presedentlarga kamroq tayanadi. Frantsiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlar kontinental huquqiy tizimga ega.

Islom huquqi (Shariat)

Islom huquqi, yoki shariat, musulmon mamlakatlarida amal qiluvchi huquqiy tizimdir. Shariat Qur'on va hadislari asosida quriladi. Islom huquqi butun hayotni qamrab oladi, jumladan, jinoyat, iqtisodiy faoliyat, nikoh, meros va boshqalar. Shariat mamlakatlarida davlat tomonidan amaldagi qonunlar va shariat qonunlari o'rtasida muvozanat o'rnatiladi. Saudiya Arabiston, Eron, Afg'oniston kabi mamlakatlar islom huquqiga asoslangan tizimni qo'llaydi.

Sotsialist huquqiy tizimi

Sovet Ittifoqi davrida shakllangan sotsialist huquqiy tizimi davlatning barcha ijtimoiy munosabatlarida hukmronligini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Bu tizimda huquq davlat tomonidan ishlab chiqilgan va jamiyatning manfaatlariga muvofiq bo'lishi kerak. Sotsialist tizimi davlatning iqtisodiy va siyosiy faoliyatlarini tartibga soladi. Sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari va ba'zi boshqa mamlakatlarda sotsialist tizimi amalda edi.

Mixlangan huquqiy tizimlar

Ba'zi mamlakatlar bir nechta huquqiy tizimlarni birlashtirgan mixlangan tizimlarga ega bo'lib, bu tizimlar bir qator turli qonuniy manbalar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Masalan, Kanadada va Hindistonda anglo-sakson tizimi va kontinent huquqiy tizimlari aralashgan.

Milliy va Xalqaro Huquqiy Tizimlarning O'zaro Bog'liqligi

Milliy huquqiy tizimlar davlat ichidagi munosabatlarni tartibga solsa, xalqaro huquqiy tizimlar davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy va xalqaro huquqiy tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Huquqiy tizim har qanday jamiyatning asosiy tayanchidir. Uning samarali faoliyati uchun nazariy asoslarning mustahkamligi va amaliyotda ularning to'g'ri qo'llanilishi muhimdir. Milliy va xalqaro huquqiy tizimlar o'rtasidagi hamkorlik zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, huquqiy tizimni muntazam rivojlantirish va takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“Huquq nazariyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashrlari.
- 2.David, R., & Brierley, J. E. C. (1985). Major legal systems in the world today.
- 3.Stone, J. (1966). The Province and Function of Law.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. Darslik / X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshq.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. — Toshkent.: “Sharq”, 2009. - 568 b.